



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI

Musayeva Shoira Azimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Email: musaeva_shoira@mail.ru

ORSID: 0009-0000-9577-6976

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholovchi turli rentabellik ko'rsatkichlari chuqur o'rganilgan. Xususan, qurilish korxonalari va potensial investorlar uchun muhim bo'lgan mahsulot sotish rentabelligi, asosiy sarmoya rentabelligi, o'z sarmoyasi rentabelligi hamda xarajatlar rentabelligi kabi ko'rsatkichlarning hisoblash tartibi va ularning amaliy ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish va korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qurilish korxonasi, samaradorlik, biznes jarayonlari, rentabellik ko'rsatkichlari, sarmoya, foyda.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of profitability indicators that assess the efficiency of using fixed assets in the operational activities of construction enterprises. Special attention is given to the indicators of sales profitability, fixed-investment profitability, equity profitability, and cost profitability, which are of particular interest to construction firms and potential investors. The research findings contribute to improving the efficiency of fixed asset utilization and strengthening the financial stability of the enterprise.

Key words: construction enterprise, efficiency, business performance, profitability indicators, investment, profit.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются показатели рентабельности, характеризующие эффективность использования основных средств в хозяйственной деятельности строительных предприятий. Особое внимание уделено таким показателям, представляющим интерес для строительных компаний и инвесторов, как рентабельность продаж, рентабельность основных инвестиций, рентабельность собственного капитала и рентабельность затрат. Представленные результаты исследования способствуют повышению эффективности использования основных средств и укреплению финансовой устойчивости предприятия.

Ключевые слова: строительное предприятие, эффективность, бизнес-процессы, показатели рентабельности, инвестиции, прибыль.

KIRISH

Jahon hamjamiyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-noyabrdagi PQ-2663-son qarori¹ qabul qilingan. Ushbu qaror bilan Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Qarorga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini kengaytirish, mikromoliyalashtirishni yanada rag'batlantirish, tijorat banklarining kredit resurslarini oshirish, shuningdek Osiyo taraqqiyot banki bilan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.11.2016 yildagi PQ-2663-son <https://lex.uz/docs/-5077811>



hamkorlikni kengaytirgan holda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda Osiyo taraqqiyot banki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun 100 mln AQSh dollari miqdorida 15 yillik kredit liniyasi ajratdi.

Bunday qo'llab-quvvatlash dasturlari barcha sohalarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi ish o'rinlarini yaratishda, mahalliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda, ilg'or texnologiyalarni joriy etishda va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohaning izchil rivojlanishi davlatning iqtisodiy siyosati, huquqiy va moliyaviy tizimlarning samarali yo'lga qo'yilishiga bevosita bog'liq bo'lib, yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznes subyektlarining rivojlanish sur'atlarini yanada jadallashtirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili ushbu sohada zamonaviy tadbirkorlik tamoyillarini, brendni targ'ib qilishning innovatsion usullarini va iste'molchilar talablariga moslashuvchan yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy tadbirkorlik yondashuvlarini rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, F. Kotler, David Aaker, Clayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp va Jay Baer kabi taniqli mutaxassislarning ilmiy ishlari tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy asoslarni boyitib kelmoqda.

Mamlakatimizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qator yillar davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda mazkur yo'nalishning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Jumladan, R. Ibragimov, Yo. Abdullaev, A. Saliev, M. Sharifxo'jayev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjaeva, Sh. Musayeva va boshqa olimlarning ilmiy ishlari kichik biznesning rivojlanish mexanizmlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularning tadqiqotlari sohaga oid nazariy yondashuvlar va amaliy takliflarni boyitmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy samaradorligini baholashda tizimli yondashuv qo'llanildi. Avvalo, qurilish korxonalarining xo'jalik faoliyati, rentabellik ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorlik darajasini o'rganish maqsadida taqqoslash, strukturaviy tahlil hamda dinamik qatorlar tahlili kabi usullar qo'llandi. Shuningdek, korxonaning 2022–2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun rasmiy buxgalteriya hisobotlari, balans ma'lumotlari va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardan foydalanildi. Mazkur usullar yordamida asosiy vositalarning samaradorligi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda o'zgarishlarining tendensiyalari aniqlab berildi.

Tadqiqotning empirik qismi korxonalarning aylanma mablag'lari, sof foyda, rentabellik turlari, moliyaviy qaramlik va mustaqillik koeffitsiyentlarining amaliy hisob-kitoblari asosida shakllantirildi. Kontent tahlili va ommaviy kuzatuv usullari yordamida iqtisodiy jarayonlarning ichki omillari baholanib, korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tashkiliy va investitsion omillar kompleks o'rganildi. Qo'llanilgan metodlar tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlab, qurilish korxonasining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligi iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi, chunki ushbu sektor yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Bunday biznes subyektlarining samaradorligi turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida iqtisodiy ko'rsatkichlar, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish alohida ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini baholashda odatda quyidagi ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida qo'llaniladi:

Rentabellik. Kichik biznesning rentabelligi daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni aks ettirib, faoliyat samaradorligini belgilaydi. Rentabellikning yuqori darajasi korxonaning barqaror va samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligi. Ushbu ko'rsatkich mehnat, moddiy resurslar va vaqt kabi omillardan qay darajada samarali foydalanilayotganini ifodalaydi. Resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlaydi.



Ish o'rinlari yaratish. Kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning o'sishi iqtisodiy faollikning ortayotganini va tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganini anglatadi.

Innovatsiyalarni tatbiq etish. Zamonaviy innovatsion yechimlarni joriy etish korxonalarga bozor talablari o'zgarishiga moslashish, yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Qayta investitsiya qilish darajasi. Kichik biznes subyektlarining faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish yoki yangi loyihalarga sarmoya yo'naltirish qobiliyati samaradorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Moliyaviy barqarorlik va likvidlik. Korxonaning moliyaviy barqarorligi, majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyati hamda zarur mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari uning uzoq muddatli rivojlanish istiqbolini belgilaydi.

"Rentabellik" (yoki "rentabilitet") iqtisodiyot va moliya sohalarida keng qo'llaniladigan atama bo'lib, u biznes yoki loyiha foydaliligini, ya'ni investitsiyalarning qay darajada samarali ekanini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich daromad va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni aniqlash orqali korxona faoliyatining moliyaviy samaradorligini baholashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. "TEKNOLOGIYA"KK tomonidan 2024-yilda bajarilgan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash hajmi

№	Obyekt nomlanishi	Obyektning smeta bahosi (ming so'm)
1	Kattaqo'rg'on shahri "G'arib" MFYdagi 3-sonli maktabni rekonstruksiya qilish	90 934 000.00
2	Urgut tumani "Soyg'us" MFYdagi 32-sonli maktabni rekonstruksiya qilish	90 934 000.00
3	Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi maishiy chiqindi poligonini tegishli infratuzilma bilan ta'minlash	45 524 000.00
4	Urgut tumani "Kamangaron" MFYdagi 49-sonli maktabni rekonstruksiya qilish	87 685 000.00
5	Pastdarg'om tumani "Mang'itobod" MFYdagi 56-sonli maktabni rekonstruksiya qilish	81 415 000.00
6	"Tadbirkorlik" mahallasida suv ta'minoti postatsiyasidan yangi liniya tortish, 6,0 km masofada beton ustunlar va yuqori kuchlanishli kabel o'rnatish, ikki dona 160 kVA transformator o'rnatish, yaroqsiz yog'och ustunlarni beton tayanchlarga almashtirish va tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish bo'yicha loyiha	38 760 000.00
	Jami:	435 252 000.00

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, korxona faoliyati natijalarini baholashda foydaning bir qator ko'rsatkichlari farqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar qatoriga mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, soliqlarni to'lashdan oldingi foyda va yakuniy sof foyda kiradi. Yalpi foyda korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadini ifodalab, mahsulot sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi va u $YaF = ST - MT$ formula orqali hisoblanadi. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum — qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirilgandan keyingi tushum bo'lib, korxonaning mahsulot realizatsiyasidan ko'rgan haqiqiy daromadini aks ettiradi. Sotilgan mahsulot tannarxi esa korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun qilgan bevosita va bilvosita xarajatlari majmuasini, jumladan moddiy, mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishda, rentabellikni aniqlashda va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).



2-Jadval. Moliyaviy natijalar to'g'risida 3 yildagi hisobot (ming so'mda)

№	Nomlari	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1	Realizatsiyadan olingan tushum	538 133,00	1 606 887,17	1 056 800,05
2	Realizatsiyadan tushgan sof tushum	538 133,00	1 606 887,17	1 056 800,05
3	Ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi	195 758,00	883 787,95	453 452,90
4	Ma'muriy xarajatlar	304 232,00	346 460,00	431 437,90
5	Boshqa xarajatlar	1 780,00	754,51	24 494,60
6	Daromaddan soliq to'langunga qadar foyda	36 363,00	375 884,71	147 414,65
7	Foydadan soliq	-	29 475,17	22 112,19
8	Sof foyda	19 764,00	325 884,71	147 414,65
	Shundan:			
8.1	Asosiy faoliyat bo'yicha	19 764,00	325 884,71	147 414,65
8.2	Umumxo'jalik faoliyat bo'yicha	0,00	0,00	0,00
9	Zarar	0,00	0,00	0,00
	Shundan:			
9.1	Asosiy faoliyat bo'yicha	0,00	0,00	0,00
9.2	Umumxo'jalik faoliyat bo'yicha	0,00	0,00	0,00

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (As.f.f.) — korxonaning asosiy xo'jalik faoliyatidan, jumladan qurilish sohasida tugallangan qurilish ishlari va shu kabi asosiy ishlab chiqarish jarayonlari natijasida olingan foydani ifodalaydi. Ushbu foydani aniqlashda, avvalo, yalpi foydadan davr xarajatlari hamda favqulodda xarajatlar chegiriladi. Davr xarajatlari tarkibiga ma'muriy xarajatlar, sotish xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar hamda hisobot davrida soliqqa tortiladigan bazadan chiqarilishi mumkin bo'lgan xarajatlar kiradi. Shuningdek, asosiy faoliyat natijasiga ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa daromadlar ham qo'shiladi. Natijada, asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda quyidagi umumiy formula orqali ifodalanadi (3-jadval):

$$As.f.f = YaF - D_{xar.} + B_{dar.} - B_{xar.}$$

3-Jadval. "TOLIB BOBO AKT" MCHJ tashkilotining 2022-2024 yillardagi balans

Balans (2021-2023y.)	2022 y.	2023 y.	2024 y.
AKTIVLAR			
Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar	7 477,00	7 477,00	7 477,00
Shundan ishlab chiqarish fondlari	0,00	0,00	0,00
qoldiq qiymati	0,00	0,00	0,00
Kapital qo'yilmalar	0,00	0,00	0,00
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0,00	0,00	0,00
Joriy aktivlar			
Aylanma mablag'	44 154,24	0,00	149 985,78
Shundan ishlab chiqarish zaxiralari	0,00	0,00	0,00
Debitor qarzlari	402 861,49	683 865,40	115 958,94
Shundan muddati o'tgan			
Jami balansining aktivi bo'yicha	454 492,73	683 865,40	265 944,72
PASSIV			
O'zlik mablag'lari manbai			
Nizom kapitali	300,00	300,00	300,00
Taqsimlanmagan foyda	1006,66	296 434,30	147 414,65
Majburiyatlar			



Zaymlar	452 060,93	226 426,1	88 000,80
Kreditor qarzlar	6 052,55	12 080,44	12 046,97
Shundan muddati o'tgan qarzlar	0,00	0,00	0,00
Shundan budget bo'yicha qarzlar	14760,38	73 685,43	679,22
Shundan ish haqidan qarzlar	0,00	73 813,99	17 503,08
Jami balansning passivi bo'yicha	452 060,93	683 865,40	265 944,72

Tashkilotning buxgalteriya bo'limi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, asosiy faoliyatdan olingan foyda soliqlarni to'lashdan oldingi foyda miqdoriga teng bo'lgan. Sof foyda esa moliyaviy natijani yanada aniq ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni quyidagi formula yordamida hisoblab chiqish mumkin:

$S.f = As.f.f - \text{Foyda solig'i} - \text{Boshqa soliqlar}$

Moliyaviy natijalarni baholash jarayonida korxona faoliyatining umumiy samaradorligini aniqlash uchun samaradorlik koeffitsiyentini hisoblash zarur bo'ladi. Bunda xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga nisbatan olingan foyda ulushini aks ettiruvchi rentabellik ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Qurilish korxonasi faoliyatini tahlil etishda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi bir qator rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi. Ular orasida qurilish korxonalari va potensial investorlar uchun eng muhim bo'lgan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: mahsulotni sotish rentabelligi, asosiy sarmoya rentabelligi, o'z sarmoyasi rentabelligi va xarajatlar rentabelligi.

Mahsulotni sotish rentabelligi (R_{msr}) sotilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda ulushini ifodalaydi hamda realizatsiya qilingan mahsulotning iqtisodiy samaradorlik darajasini belgilaydi. Ushbu ko'rsatkich yalpi foyda (YaF) summasining mahsulot sotishdan tushgan sof tushumga (ST) nisbati orqali aniqlanadi va formula ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$R_{msr} = \frac{YaF}{ST} \times 100\%$$

Asosiy sarmoya rentabelligi (R_{asr}) — korxonaning sof foydasi qo'yilgan xo'jalik mablag'lari, ya'ni asosiy sarmoyaning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda ulushini ifodalaydigan ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich sof foyda (SF) miqdorining o'z sarmoyasi ($O'S_{mab}$) yillik o'rtacha summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Asosiy sarmoya rentabelligi sarmoya qo'yilmalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, korxonaning mavjud kapitalidan qay darajada oqilona foydalanayotganini ko'rsatadi.

$$R_{asr} = \frac{SF}{O'S_{mabl.}} \times 100\%$$

Xarajatlar rentabelligi:

$$R_{xar.} = \frac{\text{Asosiy faoliyatdan foyda}}{\text{Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari}} \times 100\%$$

O'z sarmoyasining o'zini qoplashi:

$$O'S_{o'z.qopl.} = \frac{O'z sarmoyasi}{Sof foyda}$$

Tahlil jarayoni avvalo ko'rib chiqilayotgan davrdagi haqiqiy moliyaviy natijalarni oldingi yil ma'lumotlari bilan taqqoslashdan boshlanadi. 3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar hamda yuqorida berilgan formulalardan foydalanilgan holda tashkilotning moliyaviy natijalari chuqur tahlil qilindi va ushbu hisob-kitoblarning yakunlari 4-jadvalda aks ettirildi.

4-Jadval. "Texnologiya" KKning 2022-2024-yillardagi moliyaviy natijalar tahlili (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	O'zgarishi, %
1	Yalpi foyda yoki mahsulotni sotishdan moliyaviy natija	342 375,00	723 099,22	603 347,15	83,4



2	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	36 363,00	375 884,71	147 414,68	39,21
3	Foyda solig'ini to'lashdan oldingi foyda	36 363,00	375 884,71	147 414,68	39,21
4	Sof foyda	19 764,00	325 884,71	147 414,68	45,23
5	O'z sarmoya rentabelligi	15,2	109,8	99,7	90,8
6	Mahsulotni sotish rentabelligi	69,19	81,81	60,2	73,58
7	Xarajatlar rentabelligi	18,57	36,82	32,5	88,26
8	O'z sarmoyasining o'zini qoplashi	6,61	9,11	8,24	90,4

4-jadvalda "Texnologiya" KKning 2022–2024-yillardagi moliyaviy natijalari tahlil qilingan bo'lib, unda korxonaning barcha asosiy ko'rsatkichlari 2022–yilda eng past darajada bo'lganini kuzatish mumkin. Xususan, yalpi foyda yoki mahsulotni sotishdan olingan moliyaviy natija 2022–yilda 342 375,0 ming so'm, 2023–yilda 723 099,22 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda mazkur ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 119 752,07 ming so'mga kamaygan, biroq 2022–yilga nisbatan 260 972,15 ming so'mga oshgan holda 603 347,15 ming so'mni tashkil etgan. Asosiy faoliyatdan olingan foyda 2023–yilda 375 884,71 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda mazkur ko'rsatkich 228 470,03 ming so'mga kamayib, 147 414,68 ming so'mni tashkil qilgan. Sof foyda ko'rsatkichlari ham shu dinamikaga mos tarzda 2023–yilda eng yuqori darajada qayd etilgan.

O'z sarmoyasi rentabelligi 2022–yilda 15,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda mazkur ko'rsatkich 84,5 %ga o'sib, 99,7 %ni tashkil qilgan. Ushbu sezilarli ijobiy o'sishning asosiy omili sifatida 2023–2024-yillarda sof foyda va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamik tarzda oshganligini qayd etish mumkin. Natijada, o'z sarmoyasining o'zini qoplashi ko'rsatkichining eng qulay davri 2024–yilda kuzatilgan: 2022–yilda 6,61 yil, 2023–yilda 6,0 yil, 2024–yilda esa o'tgan yilga nisbatan 0,87 birlikka kamayib, 8,24 yilni tashkil qilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tashkilotning moliyaviy faoliyat samaradorligini oshirish uchun xarajatlar ulushini optimallashtirish, yuqori daromad keltiruvchi loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish, shuningdek jamiyatning daromad va xarajatlar rejasini aniq ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Qurilishda loyiha korxonasining moliyaviy barqarorligini aniqlash iqtisodiy tahlilning muhim qismi sanaladi. Aktivlarga qo'yilgan mablag'larning o'z mablag'lari hisobidan qoplanishi, ortiqcha debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'yilmasligi hamda korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi uning moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Moliyaviy barqarorlik darajasi o'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbatlar orqali aniqlanib, mustaqillik koeffitsiyenti, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti va moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar yordamida baholanadi.

Mustaqillik koeffitsiyenti ($Must.k.$) — korxonaning o'z mablag'lari umumiy xo'jalik mablag'lari tarkibidagi ulushini aks ettiradi va tashkilotning moliyaviy holatining qarz mablag'lariga qanchalik bog'liq emasligini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Must.k. = \frac{O'S}{S}$$

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ($M_{bar.k.}$) — o'z va qarz mablag'lari nisbati hamda u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_{bar.k.} = \frac{O'S}{JS}$$

O'z mablag'larining qarz mablag'laridan ortiq bo'lishi tashkilotning moliyaviy barqarorligining yetarli zahiraga ega ekanligini, shuningdek uning tashqi moliyaviy manbalarga qaram emasligini ko'rsatadi. Bunday holat korxonaning o'z mablag'lari hisobidan faoliyatini davom ettirish imkoniyatlari yuqoriligini anglatadi.

Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti ($M_{qar.k.}$) — korxonaning moliyaviy qaramlik darajasini hamda moliyaviy qiyinchiliklar xavfining oshishi yoki kamayishini baholovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich o'z mablag'ining har bir so'miga qancha xo'jalik mablag'i to'g'ri kelishini ifodalaydi va korxonaning tashqi mablag'larga qanchalik ehtiyoj sezishini ko'rsatib beradi. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M_{qar.k.} = \frac{S}{O'S}$$



O'z sarmoyasi harakatchanligi ($O'z_{sar.har.}$) — korxonaning ishlab turgan mablag'lari bilan o'z sarmoyasi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydigan ko'rsatkich bo'lib, u o'z aylanma mablag'larining, jumladan ayiruv muddati o'tgan debitorlik qarzlarning o'z mablag'laridagi ulushini tavsiflaydi. Mazkur ko'rsatkich korxona sarmoyasining qanchalik faol aylanishda ekanini aniqlash imkonini beradi va quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$O'z_{sar.har.} = \frac{IshS}{O'S}$$

Xususiy hol bo'yicha 4-jadval ma'lumotlariga asosan, tashkilotning yillar kesimidagi o'z mablag'lari quyidagicha shakllangan (ming so'mda): $O'S_1 = 1\,306,66$, $O'S_2 = 296\,734,3$, $O'S_3 = 147\,714,65$. Xo'jalik mablag'lari mos ravishda: $S_1 = 44\,154,24$, $S_2 = 0,00$, $S_3 = 149\,985,78$. Qarz mablag'lari hajmi esa: $JS_1 = 452\,060,00$, $JS_2 = 376\,055,96$, $JS_3 = 106\,188,93$ ni tashkil qilgan. Ishlab chiqarish xarajatlari ($IshS$) uch yilda ham 0,00 ga teng bo'lgan: $IshS_1 = 0,00$, $IshS_2 = 0,00$, $IshS_3 = 0,00$.

Ushbu ma'lumotlar asosida tashkilotning 2021–2023-yillardagi moliyaviy barqarorligi tahlili amalga oshirildi hamda natijalar 5-jadvalda keltirildi. Mazkur tahlil korxonaning o'z mablag'lari, qarz mablag'lari va xo'jalik faoliyatida jalb etilgan moliyaviy resurslarning dinamikasini aniqlash orqali moliyaviy barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi (5-jadval).

5-jadval. "Texnologiya" KKning 2022-2024-yillardagi moliyaviy barqarorligini baholash

№	Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	O'zgarishi, %
1	Mustaqillik koeffitsiyenti ($Must_k$)	0,02	0,00	0,98	0,98
2	Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ($M_{bar.k}$)	0,002	0,78	1,39	1,78
3	Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti ($M_{qar.k}$)	33,79	0,00	1,01	1,01
4	O'z sarmoyasi harakatchanligi ($O'z_{sar.har.}$)	0,00	0,00	0,00	0,00

5-jadval ma'lumotlari "TEKNOLOGIYA" KKning moliyaviy barqarorligi bo'yicha yillik dinamikani aks ettiradi. Tahlil natijalariga ko'ra, korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarida ayrim o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, mustaqillik koeffitsiyenti 2022–yilda 0,02ni tashkil etgan bo'lsa, 2023–yilda ushbu ko'rsatkich o'zgarishsiz qolgan. 2024–yilda esa mustaqillik koeffitsiyenti 0,98ga yetib, bazis yilga nisbatan sezilarli ravishda oshgan. Bu korxonaning o'z mablag'lari ulushi ortib borayotganini va moliyaviy mustaqillik darajasi yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti ham ijobiy dinamikani namoyon etib, 2024–yilda 1,39ga yetgan va 2023–yilga nisbatan 1,78 punktga o'sgan. Mazkur ko'rsatkich korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ortganini anglatadi.

Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti 2023–yilda 0,00 darajada bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda mazkur ko'rsatkich 1,01ga oshgan. Bu korxona xo'jalik mablag'lari tarkibida qarz mablag'larining ulushi biroz ko'payganini bildiradi, biroq koeffitsiyent 1 atrofida bo'lgani sababli moliyaviy xavf yuqori emas, o'rtacha barqarorlikni ifodalaydi.

O'z sarmoyasi harakatchanligi esa 2022–yil, 2023–yil va 2024–yillarda 0,00 koeffitsiyentni tashkil etgan. Bu esa korxonaning aylanma mablag'lari tarkibida o'z sarmoyasining ulushi mavjud emasligini yoki juda past darajada ekanini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichni yaxshilash uchun korxona aylanma mablag'lar ulushini oshirish, debitorlik qarzlarni samarali boshqarish va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Texnologiya" KKning 2022–2024-yillardagi moliyaviy faoliyati dinamik o'zgarishlarga ega bo'lib, ayrim asosiy ko'rsatkichlarda sezilarli tebranishlar kuzatilgan. Yalpi foyda, sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlari 2023-yilda eng yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2024-yilda ularning qisqarishi korxonada ayrim iqtisodiy omillarni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarining tahlili mustaqillik darajasining keskin oshganini, biroq moliyaviy qaramlik va xarajatlar rentabelligi bo'yicha barqarorlikning to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Bu esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada kuchaytirish ehtiyojini anglatadi.

Korxona moliyaviy holatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish maqsadida bir qator takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, xarajatlar tuzilmasini chuqur tahlil qilib, ortiqcha sarflarni qisqartirish va resurslardan



oqilona foydalanishni ta'minlash lozim. Ikkinchidan, yuqori daromad keltiruvchi loyihalar ulushini oshirish hamda investitsiya oqimini diversifikatsiya qilish moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, debitorlik qarzlarini boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyaviy intizom va likvidlikni oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli boshqaruv usullaridan foydalanish operatsion jarayonlar samaradorligini yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5348948>
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 48 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Biz buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 488 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar. — Xalq so'zi, 2020-yil 26-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
6. Azimovna M. S. (2022). Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Professor of Samarkand Institute of Economic and Service, Samarkand, Uzbekistan. 1(9), 20–23.
7. Musayeva S., Usmanov F. (2022). Ways to develop marketing activities in tourist organizations. Science and Innovation, 1(A5), 84–88.
8. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., Shokhrukhovich U. F. (2022). Issues of improving productivity competition in agriculture. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 2022, 51–53.
9. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., Shokhrukhovich U. F. (2022). The role of marketing in increasing the economic efficiency of service enterprises.
10. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., Shokhrukhovich U. F. (2022). The concept of a correct marketing policy in trade and service enterprises.
11. Musayeva S. (2022). Studying the organization of advertising activities of goods at "Samarkand Tea Packaging Factory" JSC. Science and Innovation, 1(A6), 185–192.
12. Musayeva S. (2022). Prospects for the development of "Stekloplastik" LLC activity in the conditions of the market economy. Science and Innovation, 1(A6), 539–546.
13. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D., Shokhrukhovich U. F. (2022). Importance and characteristics of brand choice in services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1–3.
14. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik. "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi, Samarqand, 2023.
15. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. "Mahorat" nashriyoti, Samarqand, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>